

BANK KREDIT MUNOSABATLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TAJRIBASIDAN FOYDALANISH YO'LLARI

*Toshkent Kimyo xalqaro univesiteti
Namangan filiali Xalqaro iqtisodiy
munosabatlar yo'nalishi 3-kurs talabasi
Muxitdinov Ikromjon Xamid O'g'li*

Annotatsiya: Ushbu maqolada bank kredit munosabatlarini takomillashtirishda rivojlangan mamlakatlar tajribasidan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari yoritiladi. Rivojlangan davlatlarda kreditlash tizimining samarali mexanizmlari, risklarni boshqarish usullari, kredit resurslaridan oqilona foydalanish hamda bank tizimi barqarorligini ta'minlashga qaratilgan ilg'or yondashuvlar tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu tajribalarni milliy bank tizimiga moslashtirish imkoniyatlari va ularning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri asoslab beriladi.

Kalit so'lar: bank krediti, kredit munosabatlari, rivojlangan mamlakatlar tajribasi, kredit siyosati, bank tizimi, risklarni boshqarish, moliyaviy barqarorlik, kreditlash mexanizmlari.

Аннотация: В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты совершенствования банковских кредитных отношений на основе использования опыта развитых стран. Анализируются эффективные механизмы кредитования, методы управления кредитными рисками, рациональное использование кредитных ресурсов и современные подходы к обеспечению устойчивости банковской системы. Также обосновываются возможности адаптации зарубежного опыта к национальной банковской системе и его влияние на экономическое развитие.

Ключевые слова: банковский кредит, кредитные отношения, опыт развитых стран, кредитная политика, банковская система, управление рисками, финансовая устойчивость, механизмы кредитования.

Annotation: This article examines the theoretical and practical aspects of improving bank credit relations through the use of best practices from developed countries. The study analyzes effective lending mechanisms, credit risk management methods, efficient use of credit resources, and modern approaches to ensuring the stability of the banking system. In addition, the possibilities of adapting international experience to the national banking system and its impact on economic development are substantiated.

Keywords: bank credit, credit relations, experience of developed countries, credit policy, banking system, risk management, financial stability, lending mechanisms.

Kirish: Aholini banklar bilan kredit munosabatlarining rivojlanishi bu nafaqat iqtisodiy, bilki siyosiy hamda ijtimoiy masaladir. Bu esa bank kreditlashning sharti va usullarini zamonaviylashtirish, kreditlarni taqdim etish va so'ndirish sharoitini takomillashtirish borasidagi xorijiy mamlakatlar tajribalaridan foydalanishni talab etadi. Sanoati rivojlangan mamlakatlarining bank amaliyotida iste'mol kreditlari tijorat banklari tomonidan beriladigan kreditlarning muhim turi hisoblanadi. Ular hozirgi davrda, asosan, uy ro'zg'or buyumlari, qurilish materiallari, qayta tiklash maqsadlariga berilmoqda. Xorijiy davlatlarning bank amaliyotida berilgan iste'mol kreditlari bo'yicha mijozlar tomonidan to'lovlarni amalga oshirishda quyidagi usullardan foydalanilmoqda:

- Qat'iy belgilangan foiz stavkalarida to'lash usuli.

Ushbu usulda mijoz iste'mol krediti bo'yicha asosiy qarz summasi va foizlar bo'yicha to'lovlarni har oyda amalga oshirib borishi lozim. Shunisi xarakterliki, mazkur usulda to'lovlar miqdori oydan-oyga o'zgarmagan holda saqlanib qoladi.

- Suzuvchi stavkalarda to'lovlarni amalga oshirish usuli.

Ushbu usulda foiz me'yori boshqa foiz stavkalarining o'zgarishiga bog'lab qo'yiladi va ularning o'zgarishiga mos ravishda o'zgarib boradi. Odatda, iste'mol kreditining foiz stavkasini muvofiqlashtirish bir yilda bir marta amalga oshiriladi.

- To'lovlarni tabaqalashtirilgan tarzda amalga oshirish usuli.

Mazkur usulda iste'mol kreditlari bo'yicha amalga oshiriladigan to'lovlarning miqdori asta—sekin oshib boradi. Bunda dastlabki davrlardagi to'lovlarning miqdori kichik bo'ladi. Shu sababli, mazkur usulni qo'llash yosh oilalarga, daromadini kelgusida oshib borishi kutilayotgan shaxslarga iste'mol krediti berishda qo'l keladi.

- Iste'mol kreditlari bo'yicha to'lovlarni sug'urtalash usuli.

Xorijiy davlatlarning bank amaliyotida iste'mol kreditlarining muddati 7 yildan 20 yilgacha bo'lgan muddatga tebranadi. Bunday ssudalarga nisbatan suzuvchi foiz stavkalari qo'llaniladi. Ayrim hollarda aholining ma'lum qatlamlari uchun, odatda, daromad darajasi past bo'lgan qatlamlari uchun davlat tomonidan nisbatan past foiz stavkalari belgilanadi. G'arbiy Yevropa davlatlarida ularning standart bahosi fuqarolar o'rtacha oylik ish haqining 100-120 barobari miqdorida baholanadi.

O'z navbatida, davlat tomonidan iste'mol kreditlarini tartibga solish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- banklarining likvidliligini rivojlantirish;
- tijorat banklarining kredit operatsiyalari ustidan nazoratni amalga oshirish;

- qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarni nazorat qilish.

Bundan tashqari, davlat barcha mamlakatlarda aholining sotib olish maqsadida kredit olishini rag'batlantirish uchun tegishli chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Agar iste'mol kreditlari berish amaliyotini turli davlatlar misolida tahlil qiladigan bo'lsak, u holda, davlatning aholining iste'mol kreditlarini olishini rag'batlantirish maqsadida quyidagi tadbirlardan foydalanganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin:

- qarzdorning iste'mol kreditini to'lashga yo'naltirgan daromadini soliqlardan ozod qilish;
- foizlarni bonifikatsiya qilish yo'li bilan iste'mol kreditining qiymatini pasaytirish.

So'nggi uchinchi tadbir Fransiya va Germaniyada mavjud bo'lgan –jamg'arma ssudalari uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Fransiyada iste'mol kreditlarining o'ziga xos shakli bo'lib, uning subyektlari sifatida xususiy shaxslar ishtirok etadi.

Fransiyada iste'mol kreditlari beruvchilar bo'lib asosan yirik tijorat banklari, o'zaro jamg'arma institutlari va jamg'arma kassalari hisoblanadi. Mazkur banklar mijozlarga ikki turdagi-jamg'arma hisobraqamlarini ochadilar:

1. "A jamg'arma daftarchasi" – bu hisobraqamida 50 ming yevro miqdorigacha pul mablag'i to'plash va 100 ming yevro miqdoridagi iste'mol kreditini imtiyozli foiz stavkasida olish mumkin. Har yili maqsadli omonatga 7500 yevro miqdorida davlat ustamasi qo'shilib boradi.

2. "PEL" hisobraqami. Mazkur hisobraqamda 100 ming yevrogacha pul mablag'i to'plash va 150 ming yevro miqdorida imtiyozli stavkada iste'mol krediti olish mumkin.

Ispaniyada ham omonatlar davlatni moliyalashtirishda juda katta rol o'ynaydi.

Ispaniyada iste'mol kreditlarining uch kategoriyasi mavjud:

1. Davlat tomonidan tartibga solinuvchi kreditlar toifasiga kiruvchi ssudalari.
2. To'g'ridan-to'g'ri beriladigan davlat ssudalari.
3. Bank ssudalari.

Davlat tomonidan tartibga solinuvchi kreditlar toifasiga kiruvchi ssudalari – bu davlat kredit organlari va xususiy muassasalar tomonidan bozor stavkalaridan past stavkalarda beriladigan kreditlardir.

Hozirgi davrda qurilayotganlar qiymatining 75 foizi miqdoridagi mablag'ni hissali ishtirok sifatida qo'yish mumkin. Lekin hissali ishtirok sifatida kredit oluvchilar tomonidan qo'yiladigan pul mablag'ining miqdori davlat tomonidan belgilanadigan kvadrat metr bilan chegaralangan. Kvadrat metr miqdori esa, geografik zonalar bo'yicha har yili belgilanadi.

Mazkur ssudalarning qoplanish muddati 18 yil bo'lib, shundan 15 yilini sotib oluvchiga va 3 yili ni ekspluatatsiya qiluvchi firma uchun belgilangan imtiyozli davrga

to'g'ri keladi. Xususiyl banklar esa, uzoq muddatli iste'mol kreditlari berishdan manfaatdor emas.

Yaponiyada iste'mol kredit amaliyoti davlat tomonidan qattiq nazorat qilinadigan amaliyot hisoblanadi. Faqat bitta muassasa “ qurilishini moliyalash jamiyati” mamlakat bo'yicha berilayotgan iste'mol kreditlarining 35 foizini beradi. Ushbu jamiyat resurs manbai sifatida pochta jamg'armalarining sezilarli qismini imtiyozli foiz stavkalarida jalb qiladi va o'z resurslarining yarmini daromad darajasi past bo'lgan oilalarga iste'mol ssudalari sifatida beradi. Mazkur jamiyat resurslarining qolgan qismi ekspluatatsion firmalariga va davlatning qurilish dasturlarini moliyalashtirishga yo'naltiriladi. Shunisi xarakterliki, mazkur Jamiyat tomonidan berilayotgan iste'mol kreditlarining foiz stavkalari davlat tomonidan doimiy tarzda nazorat qilinadi.

Yaponiya tijorat banklari iste'mol krediti berishda mijozlarning kredit to'loviga nisbatan jiddiy talablarni qo'yadilar. Mijoz birinchi toifali qarzdor maqomiga ega bo'lishi uchun nafaqat yuqori daromadga ega bo'lishi, balki ijtimoiy nufuzga ham ega bo'lishi lozim. Masalan, banklar “Mitsui” kontsernining oddiy xodimiga sotib olish uchun kredit berishni yuqori daromadli kichik tadbirkorga kredit berishdan ko'ra afzal biladilar.

Germaniya, Buyuk Britaniya va Fransiyada iste'molni kreditlash, asosan, bir darajali modelga tayanadi. Ushbu modelning birinchi o'ziga xos xususiyati shundaki, bank mijozlarining iste'mol krediti bo'yicha berilgan barcha arizalari bank tomonidan barcha resurs manbalari hisobidan, ya'ni bankning kapitali, mijozlarning depozit hisobraqamlaridagi mablag'lari, boshqa banklardan olingan kreditlar va boshqa manbalar hisobidan ta'minlanadi.

Iste'mol kreditlari bo'yicha foiz stavkalari mamlakat iqtisodiyoti va kredit-moliya bozorining holatiga bog'liq bo'ladi.

Mazkur modelning uchinchi muhim xususiyati uning oddiyligidir. Bu esa, undan moliya bozorining infratuzilmasi to'liq shakllanmagan rivojlanayotgan mamlakatlarida muvaffaqiyatli qo'llash imkonini beradi.

Iste'moli kreditlashning ushbu bir pog'onali modelida iste'mol kreditlari bilan bog'liq bo'lgan asosiy parametrlar har bir bank tomonidan mustaqil o'rnatiladi va ular asosan ikki omildan kelib chiqqan holda o'rnatiladi. Birinchi omil bozor konyunkturasining o'zgarishi bo'lsa, ikkinchi omil bo'lib, boshqa banklar tomonidan raqobatning mavjudligi yoki yo'qligi hisoblanadi.

AQShda esa, Germaniya, Fransiya va Buyuk Britaniyadan bo'lib, iste'mol kreditlari berishning ikki pog'onali modeli qo'llaniladi.

Sharqiy Yevropa davlatlarida iste'mol kreditlarining asosiy qismini iste'mol tovarlari sotib olish yoki ipoteka maqsadlariga beriladigan iste'mol kreditlari egallaydi. Buning sababi shundaki, aholi asosiy qismining moliyaviy daromadlari qurish yoki sotib olish xarajatlarini moliyalashtirishga yetmaydi. Masalan, Vengriyada iste'mol

kreditlarining aholiga berilayotganining o'ndan to'qqiz qismi qurilishiga atiga 1 qismi iste'mol tovarlari sotib olishga yo'naltirilmoqda. Chexiya va Slovakiyada qurish maqsadiga berilgan kreditlar iste'mol kreditlari umumiy summasining 40 foizdan ortiq qismini tashkil qilmoqda.

Iste'mol krediti bir pog'onali tizimida kreditorlar uzoq muddatli iste'mol kreditlari uchun zarur bo'lgan mablag'larni iste'mol obligatsiyalarini chiqarish yo'li bilan to'g'ridan-to'g'ri birlamchi bozordan jalb qiladilar. Bunday sharoitda resurslarning asosiy manbalari bo'lib, uzoq muddatli iste'mol kreditlarini olishdan manfaatdor bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslarning qo'yilmalari hisoblanadi.

Iste'mol kreditining bir pog'onali tizimiga yorqin misol qilib Germaniya iste'molli kreditlash amaliyotini keltirish mumkin. Germaniya iste'molli kreditlash tizimining o'ziga xos jihatlaridan biri shundaki, bu yerda iste'mol krediti Qurilish jamg'arma kassasiga (QJK) mijoz bo'lgan omonatchilargagina beriladi. O'z navbatida, QJK iste'mol tashkilotlari uchun mablag'lar jalb etish funksiyasini va kredit oluvchi uchun jamg'arma hisobraqami funksiyasini bajaradi. Omonatchi maqsadli depozit hisobraqamiga ma'lum davr mobaynida qat'iy belgilangan summani o'tkazib borish majburiyatini oladi. Mazkur depozit hisobraqamiga bozor stavkasidan sezilarli darajada past bo'lgan stavkada foiz to'lanadi. Jamg'arish davri tugagandan so'ng, kvartira sotib olish uchun zarur bo'lgan mablag'ning yarmiga yaqinini jamg'argan omonatchi, qolgan yarim mablag'ni kredit hisobidan oladi va bu mablag'larga o'rtacha bozor stavkasidan past stavkada foiz to'lanadi. Omonatchi tomonidan QJK ga berilgan pul mablag'lari jamg'arish davrini tugatgan undan oldingi omonatchiga kredit qilib beriladi.

Umuman olganda, bir pog'onali iste'molli kreditlash tizimi quyidagi xususiyatlarga ega:

- iste'mol operatsiyasi bevosita iste'mol bank va kredit oluvchi o'rtasida amalga oshiriladi;
- iste'mol kreditlari berish uchun resurs manbai bo'lib, aholining banklardagi maqsadli depozitlari va davlat subsidiyalari hisoblanadi;
- bir pog'onali iste'molli kreditlash tizimini joriy qilish uchun birinchi navbatda uzoq muddatli kreditlash va institutsional infratuzilma rivojlangan bo'lishi, aholining bank tizimiga ishonchi mavjud bo'lishi lozim;
- aholining banklardagi omonatlari sug'urtalangan bo'lishi lozim.

Aholining bank tizimiga ishonchi past bo'lgan va uzoq muddatli kreditlash rivojlanmagan mamlakatlarda mazkur bir pog'onali iste'mol kreditlash tizimini joriy etish davlatning rolini oshirishni taqozo qiladi. Davlatning rolini oshirish deganda davlat tomonidan iste'mol kreditlari berish bilan shug'ullanayotgan banklarni soliq imtiyozlari va boshqa imtiyozlar berish yo'li bilan qo'llab-quvvatlash, aholining banklardagi depozitlarini sug'urtalash tushuniladi. Ammo bu o'rinda shuni e'tirof etish

lozimki, mazkur amaliyot resurslardan samarasiz foydalanishni yuzaga keltirishi mumkin.

Ikki pog'onali iste'molli kreditlash tizimida mablag'lar ixtisoslashtirilgan operatorlar orqali jalb qilinadi. Bunday kreditlash tizimi ikki pog'onali iste'molli kreditlash tizimi deb ataladi. Uning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- Iste'mol operatsiyalari vositachilar orqali, ya'ni agentliklar, banklar, investorlar, kredit oluvchilar orqali amalga oshiriladi;
- iste'mol kreditlari berish uchun zarur bo'lgan resurslar iste'mol obligatsiyalarini fond birjasida sotish orqali jalb etiladi;
- fond bozorlari rivojlangan va barqaror bo'lishi lozim;
- iste'mol obligatsiyalari davlat agentliklari tomonidan kafolatlanadi;
- bu tizimda iste'mol kreditlarining risk darajasi nisbatan past bo'ladi, chunki davlat agentliklarining kafilligi mavjud bo'ladi.

3.1.1-jadval

Evropa mamlakatlarida uzoq muddatli iste'mol kreditlarini berish shartlaridagi o'zaro farqlar

Sharqiy Yevropa davlatlari	Qiymatining kredit bilan qoplanadigan qismi	iste'mol kreditining muddati
Bolgariya	70 foizgacha	30 yil
Vengriya	88 foizgacha	35 yil
Polsha	70-84 foiz	30-60 yil
Chexiya	44 foiz	30 yil
Slovakiya	44 foiz	30 yil


Ikki pog'onali iste'molli kreditlash tizimi dastlab AQShda paydo bo'ldi. Uning paydo bo'lishining asosiy shart-sharoiti shunda ediki, Buyuk Depressiyadan keyin AQSh hukumati mamlakatda uzoq muddatli kreditlashni rag'batlantirish va bank tizimini moliyaviy inqirozlardan himoya qilishga harakat qildi. Dastlab Milliy Iste'mol assotsiatsiyasi (Federal National Mortgage Association, Fannie Mae) tashkil etildi va uning funksiyasi sifatida quyidagilar belgilab qo'yildi:

- hukumat kafolati asosida iste'mol obligatsiyalarini chiqarish;
- banklardan iste'mol kreditlarini sotib olish;

Shuni alohida qayd etish lozimki, keyingi yillarda iste'molli kreditlashning turli modellari o'rtasidagi chegaraning yo'qolib borishi kuzatilmoqda. Ko'pchilik mamlakatlar iste'molli kreditlashning kombinatsiyalashgan modellaridan foydalanishmoqda. Ushbu kombinatsiyalashgan modellar Amerika va Yevropa iste'molli kreditlash tizimlarining elementlarini o'zida mujassamlashtirgan. Hatto

kontinental Yevropa mamlakatlarida ham aktivlarni qayta tarkiblashning amerikacha va angliycha usullaridan foydalanilmoqda.

Iste'mol kreditlarini berish tartibi mamlakatlar bo'yicha sezilarli darajada farqlanadi.



3.1.1 - rasm. Banklar tomonidan berilgan iste'mol kreditlarining YaIM ga nisbatan salmog'i, % (2022 yil holatiga).

3.1.1-rasmda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki, rivojlangan davlatlar bo'lgan Yevropa Ittifoqi davlatlari va AQShda iste'mol kreditlarining YaIM dagi salmog'i juda yuqori bo'lib, bu holat mazkur mamlakatlarda iste'molli kreditlash amaliyotining rivojlanmaganligidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasida ham, o'tish iqtisodiyoti mamlakatlaridagi kabi iste'mol kreditlarining YaIM dagi salmog'i sezilarli darajada past. 2021 yilning 1 yanvar holatiga, respublikamiz tijorat banklari tomonidan berilgan iste'mol kreditlarining nominal YaIM ga nisbatan salmog'i atigi 3 % dan ham kam.

Jahon tajribasidan shu narsa ma'lumki, aholining yashash darajasi, oila byudjetini oshirish va ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlashda iste'mol kreditining ahamiyati katta. Iste'mol krediti ko'pgina mamlakatlarda bank operatsiyalarining keng tarqalgan turlaridan biri hisoblanib, iste'molchining, ya'ni fuqaroning iste'mol ehtiyojini qondirish maqsadida tovarlar (ishlar, xizmatlar) sotib olishi uchun beriladi.

Iste'mol krediti ikki turga bo'linadi: bu sotib olingan tovarlar haqini to'lash uchun iste'molchiga pul mablag'lari tarzida beriladigan moliyaviy iste'mol krediti, sotib olingan tovarlar, bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar haqini bo'lib to'lash tarzida beriladigan tovar iste'mol kreditidir. Iste'mol krediti rivojlangan G'arb mamlakatlaridagi bank operatsiyalarining keng tarqalgan turlaridan biridir. Bunda shuni alohida ta'kidlash kerakki, iste'mol kreditining amal qilish sohasi avtomashina,

maishiy texnika kabi uzoq muddat foydalaniladigan tovarlarni sotib olishga qaraganda ancha kengdir. Masalan:

- ko'chmas mulkni xarid qilishda ham haqi bo'lib to'lanadigan aslida, uzoq muddatli kredit berish turlaridan biridir;
- debet - kredit kartochkalari orqali amalga oshiriladigan joriy xaridlar o'z ahamiyati va keng tarqalganligi jihatidan iste'mol kreditidan foydalanishdan qolishmaydi.

AQSh Federal qonunchiligida va ayrim Shtatlarning qonunlarida iste'mol krediti deganda jismoniy shaxsning shaxsiy va oilaviy ehtiyojlarini, shuningdek uy xo'jaligi ehtiyojlarini qondirish uchun kredit olishi tushuniladi. Bunday talqin joriy iste'mol uchun tovar va xizmatlarni uzoq vaqt foydalaniladigan tovarlar va ko'chmas mulkni sotib olishni o'z ichiga oladi. Iste'mol krediti ushbu turlarining so'nggisi o'ziga xos xususiyatlari tufayli alohida tarmoq deb qaraladi. Iste'mol kreditining uzoq muddat foydalaniladigan tovarlar (durafbe goods) haqini bo'lib to'lash orqali sotib olish kabi klassik turini ko'rib chiqamiz.

AQSh Qonunchilik amaliyotida iste'mol kreditini asta – sekin (installment) va bir yo'la (noninstallment) undiriladigan turlarga bo'lish qabul qilingan. Qarzdorning bir marotaba to'lovi bilan undiriladigan iste'mol krediti, odatda, tijorat banklari tomonidan (single payment loans) yoki xizmatlar ko'rsatish sohasi korxonalari tomonidan (service credits) beriladi. Asta - sekin undiriladigan kredit deganda ikki marotaba va bundan ham ko'proq to'lovlar orqali undiriladigan kredit tushuniladi. Iste'mol kreditining ayni ushbu turi AQSh da ayniqsa keng tarqalgan (ipoteka krediti bu hisobga kirmaydi). Iste'mol krediti etkazib beruvchilarini birlamchi sotuvchi agentlar (originators) va ikkilamchi kreditor agentlar (holders)ra bo'lish iste'mol kreditini tasniflashning boshqa bir usulidir. Aksariyat hollarda bir shaxsning o'zi kredit sotuvchisi (originator) va kreditor (holder) bo'ladi. Lekin bozorda ikkita agent qatnashadigan hollar ham ko'p bo'ladi: masalan, avtomobil sotib olishga yo'naltiriladigan kreditning katta qismi avtomobil sotiladigan joyda diler tomonidan rasmiylashtiriladi, keyin esa bankka yoki moliya kompaniyasiga beriladi. Bunday holda avtodiler kreditga oid o'z huquqlarini moliya muassasasiga diskont bo'yicha beradi.

Bundan tashqari, AQSh qonunchiligi iste'mol kreditini moliyaviy kredit (lender credit) va tovar krediti (vendor credit) turlariga bo'ladi. Ma'lumki, moliyaviy kredit deganda, pul ssudasi berilishi tushuniladi. Tovlar krediti deganda esa tovar sotuvchisining iste'molchiga sotib olingan tovar uchun haqni bo'lib to'lash huquqini berishi nazarda tutiladi. Chakana savdo korxonasi xaridorning hisob raqamlarini hisobga olib borganligi uchun bankka to'laydigan diskont xususiyatini alohida aytib o'tish lozim. Aslida, bu naqd to'lov uchun imtiyozdir (cash discount). Gap shundaki, savdo korxonalari amaliyotida xarid haqini naqd to'laydigan mijozlarga standart narxlardan siylov (odatda 3-5 % miqdorida) berish qabul qilingan. Kredit kartochkasi

orqali to'lov amalga oshirilganda iste'molchiga bunday imtiyoz berilmaydi. Boshqa tomondan, sotuvchi bankka hisob raqamini taqdim etganida, xuddi haqni naqd olganidagidek samaraga erishadi. Shu tariqa xaridor kredit kartochkasidan foydalaniganida bankdan naqd mablag' olish (naqd pul olishda bankka xizmat haqi to'lash) zaruratidan qutulish tufayli tejamga erishadi. Lekin imtiyoz olish huquqidan mahrum bo'ladi. Diskont stavkasi asosan qatnashuv shartnomasi (memberagreement) shartlariga bog'liq bo'lib, odatda, 5 %ni tashkil etadi, ya'ni haq naqd to'lanishi tufayli beriladigan imtiyoz stavkasi darajasida bo'ladi. Iste'mol krediti bo'yicha bitim mezonlarini hisoblab chiqish uslubiyatini asta - sekin undiriladigan kreditlar (installmentcredit) misolida ko'rib chiqamiz. Kredit berish borasidagi moliyaviy faoliyat qarzlarini undirishning turli usullaridan, shuningdek, kredit bitimining mezonlarini belgilashdagi izchilliklardan foydalanishni ko'zda tutadi. Ularni tanlash esa ko'pincha kreditorning maqomiga bog'liq bo'ladi (bank yoki kredit muassasasi % stavkasini asosiy mezon deb olgan taqdirda chakana savdodagi sotuvchi qarzlarini undirish yuzasidan o'zi ishlab chiqqan grafikka asoslanishi mumkin). Bunda chakana sotuvchi (retailer) kreditni undirish grafigini xaridorga ma'lum qilganida qanday % stavkasi qo'llanayotgani va natijada qarz oluvchining zimmasiga qanday moliyaviy yuk tushayotganini aniq tushuntirishi lozim.

AQShda iste'mol krediti berilayotganda kreditor kredit oluvchi bilan bitim tuzayotganda kredit mezonlarini «ochib ko'rsatishi» kerak. Iste'mol krediti etkazib beruvchilar (vendors), odatda, qarzni undirish grafigidan kelib chiqqan holda, stavka o'lchamini belgilashadi. Bunda ular yillik % stavkalarining maxsus jadvallar (annualpercentage Gag.e)dan foydalanishadi. Iste'mol kreditida oddiy %lar, odatda, kreditning butun miqdori bo'yicha hisoblab yoziladi va qarzning asosiy miqdoriga kreditni berish paytida qo'shiladi. Qarzni %lari bilan undirish kreditning butun muddati mobaynida teng qismlarda to'lash orqali amalga oshiriladi. %lar qarzning butun miqdori bo'yicha hisoblab yoziladi, uning haqiqiy summasi esa vaqt o'tgan sayin kamayib boradi. Shu tufayli haqiqiy ishlatilgan kredit bo'yicha % stavkasi iste'mol krediti shartlari asosidagi stavkaga qaraganda sezilarli darajada yuqoriroq bo'ladi. Masalan, yillik % stavkasini 10 % darajasida belgilab, uch yil mobaynida iste'mol krediti berishda haqiqiy stavka 19,46 %ni, ya'ni amalda ikki barobar ko'proqni tashkil etadi. Iste'mol krediti amaliyoti %larni bir yo'la kreditning butun miqdori bo'yicha hisoblab yozishni nazarda tutadi. Shu sababli, qarzlarini undirishni byurolari) vujudga keladi. Bu esa ayrim iste'molchilarning kredit qobiliyatlarini baholashga doir sarf-xarajatlarni ancha kamaytirish imkonini berib, iste'mol krediti bilan bog'liq moliyaviy tavakkalchilik xavfini ham ancha kamaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I B.Parpiev. Bankka yangi mijozlarni jalb etish va mijozlar siyosatini amalga oshirish xususiyatlari. "Iqtisodiyot va ta'lim", 2011 yil,6-son. 127 b,

2. J.Jalolov. A.Fattaxov va.b. "Biznes marketingi". Toshkent. "Moliya-iqtisod" 2007 y. 163-bet
3. M.Abduraxmanova. Bank xizmatlari bozorida marketing faoliyatini rivojlantirish. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdime tilgan dissertasiya avtoreferati. T.2010 y. 9.b
4. M.Abduraxmanova. Bankxizmatlaribozorida marketing faoliyatirivojlantirish. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiydarajasini olish uchun taqdimetilgan dissertatsiya avtoreferati. T.2010 y. 10.b
5. Panova G.S. Kreditnaya politika kommercheskogo banka. Uchebnik.-M.: Finansi i statistika. 2000.–S. 464.
6. Абдурахманова М. Банк хизматлари бозорида маркетинг фаолиятини ривожлантириш. Иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. ТДИУ. Тошкент.2008 12 бет.
7. Азларова А.А. Ўзбекистон банк тизимида маркетинг фаолиятини такомиллаштириш истикболлари. “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 1, январь-февраль. 2018 6 –бет.